Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich - DSc., professor
Nazarov Jamshid Abdurashidovich - assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

PSORIAZ KASALLIGIIDA TERI TUZILMALARIDAGI PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLARI KUZ MAVSUMIGA XOS BO'LGAN JIHATLARI

Annotasiya. *52 nafar bemor terisidan olingan bioptat patomorfologik tekshiruvdan o'tkazilgan. Aniqlanganki, psoriaz kasalligia chalingan bemorlar teri tuzilmalarida yoz mavsumida tikanaksimon qavatida spongioz deyarli rivojlanmaydi. Derma qavatida ham perivaskulyar shish kuchsiz rivojlanadi. Bu esa davolash muolajalarini bajarishda muhim jarayon hisoblanadi. Psoriaz kasalligini davolash amaliyoti bajarilish vaqtida mazkur patomorfologik o'zgarishlar inobatga olinishi davolash samaradorligini ortishiga olib kelishi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *psoriaz, kuz mavsumi, keratinosit, distrofiya, epidermis, derma, shish.*

Жуманов Зиядулла Эшмаматович - DSc, профессор
Назаров Джамшид Абдурашидович - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

ОСОБЕННОСТИ ПАТОМОРФОЛОГИИ ИЗМЕНЕНИЙ СТРУКТУР КОЖИ ПРИ ПСОРИАЗЕ, ХАРАКТЕРНЫЕ ДЛЯ ОСЕННЕГО СЕЗОНА

Аннотация. *Патоморфологическому исследованию подверглись биоптаты кожи 52 пациентов. Установлено, что у больных псориазом летом практически никогда не развивается спонгиоз рогового слоя кожи. В слое дермы также слабо развивается периваскулярный отек. Это важный процесс при выполнении лечебных процедур. Подчеркивается, что учет этих патоморфологических изменений при лечении псориаза позволит повысить эффективность лечения.*

Ключевые слова: *псориаз, осенний сезон, кератиноциты, дистрофия, эпидермис, дерма, отек.*

Jumanov Ziyadulla Eshmamatovich - DSc., Professor
Nazarov Jamshid Abdurashidovich -assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

ASPECTS OF PATHOMORPHOLOGY CHANGES IN SKIN STRUCTURES IN PSORIASIS SPECIFIC TO THE AUTUMN SEASON

Abstract. *Biopsies taken from the skin of 52 patients were subjected to pathomorphological examination. It was found that in patients with psoriasis, spongiosis practically does not develop in the spinous layer of the skin structures in the summer season. Perivascular edema also develops weakly in the dermis. This is an important process in the implementation of treatment procedures. It is emphasized that taking into account these pathomorphological changes during the implementation of psoriasis treatment practice will lead to an increase in the effectiveness of treatment.*


Keywords: *psoriasis, autumn season, keratinocyte, dystrophy, epidermis, dermis, edema.*

Muammoning dolzarbligi. Psoriazning epidemiologiyasi haqida gapirganda, uning turli mamlakatlarda tarqalishi juda katta farq qilishini ta'kidlash kerak. Shunday qilib, xorijiy mualliflarning zamonaviy ma'lumotlariga ko'ra, kattalar aholisi orasida bu ko'rsatkich 0,91% (AQSh) dan 8,5% (Norvegiya) gacha o'zgarib turadi [1] va bu raqamlar o'sishda davom etmoqda [2]. Psoriasis eskimoslar, yaponiyaliklar va amerikalik hindular orasida deyarli topilmaydi [3,4]. Sayyoramizning yuqori harorat va namlik yuqori bo'lgan iqlimiy va geografik hududlarida psoriazning ekssudativ turi, past haroratli hududlarda esa artropatik shakli ko'proq uchraydi [5,6].

Tadqiqotning maqsadi: Psoriaz kasalligining kuz mavsumiga xos teri tuzilmalaridagi patomorfologik o'zgarishlarini aniqlash.


Tadqiqotning material va usullari: RIDV va KIATM Samarqand xududiy filialida hisobda turadigan va doimiy davo muolajalarini olib turadigan jami 164 nafar bemor terisidan olingan bioptat Samaraqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi patologik anatomiya bo'limida o'rganildi. Psoriaz kasalligida teri tuzilmalarining morfologik va morofmetrik o'zgarishlarini yoshga va iqlim sharoitiga bog'liqligini baholashda anamnestik, makroskopik, mikroskopik, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan o'tkazildi. Gistoloig qirqmalar Gemotoksilin-eozin usulida bo'yaldi.

Natija va xulosalar: olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoz oylarida Mikroskop ostida tekshirilganda bazal qavatning hujayralarining vokualli distrofiyasi, ularning sonini kamayganligi, bazal keratinotsitlarning nekroz holati va ularning atorofiida leyko-limfotsitar infiltratsiya rivojlanganligi aniqlanadi. Bazal qavat hujayralarining qolgan qismida mitotik bo‘linish holati qayd etiladi. Tikansimon qavatning qatorlari keskin kamayganligi, hujayralarida perinuklear shishinish, karipiknoz, karireksis va aksariyat hujayralar yadrosida kariolizis hujayralar atrofida shish aniqlanadi (1-rasm). Tikanaksimon qavatida nekrobiotik o‘zgarishlar qayd etilmagan hujayralarida mitotik bo‘linish holatidagi keratinotsitlar aniqlanadi.




1-rasm. **Psoriaz kasalligida epidermisning tikanaksimon qavati. Perisellyulyar shish. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**

Donador qavat hujayralari yakka dukka. Donadorligi yo‘qolgan. Yaltiroq qavat yupqa, aksariyat joylarida aniqlanmaydi. Muguz qavati qalinlashgan, qavatlarga bo‘lingan, hujayralari bir biridan uzilgan, geperkeratoz aniqlanadi. Epiteliotsitlarning hujayralarining proliferatsiyasi fonida giperkeratoz, parakeatoz, papillomatoz va yallig‘lanishli teri infiltratsiyasi kuzatiladi (2-rasm).



2-rasm. **Psoriaz kasalligida hujaralar infiltrasiyasi. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**

Soch xaltasi bo‘shlig‘ida ko‘plab muguz moddaning to‘planishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hosil bo‘lgan ko‘p sonli akantoz botib kirish ko‘rinishga ega. Epidermal tizmalar uzun va kengligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari hujayralararo shishinish (spongioz) holati kuchsiz ifodalanadi. Dermaning surg‘ich qavatida qon tomirlarning to‘laqonligi kapillyarlarning kengayishi, shishinish va neytrofil granulotsitlar aralashmasi bilan limfotsitlar va gistiotsitlarning yallig‘lanish infiltrati qayd etiladi. Ularning qon tomirlar atrofida joylashganligi qayd etiladi. Elastik tolalrning destruksiyasi va ularning miqdori kamayganligi aniqlanadi (3-rasm).



3-rasm. **Psoriaz kasalligida terining derma qavatidagi elastik tolalrning destruktiv o’zgarishlari. Gematoksilin-eozinda bo’yalgan. Ob.40, ok.10**

To‘rsimon qavati tolalari kamaygan, shishini holatida. Qon tomirlari bo‘shlig‘i toraygan devori qalinlashagan. Bir ko‘ruv maydonida 1-2 tagacha soch follikulalari, yakka holdagi ter bezi ko‘zga tashlanadi, yog‘ bezlari aniqlanmaydi.

Shunday qilib, psoriaz kasalligia chalingan bemorlar teri tuzilmalarida yoz mavsumida tikanaksimon qavatida spongioz deyarli rivojlanmaydi. Derma qavatida ham perivaskulyar shish kuchsiz rivojlanadi. Bu esa davolash muolajalarini bajarishda muhimdir jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Parisi R, Symmons DP, Griffiths CE, Ashcroft DM. Global epidemiology of psoriasis: a systematic review of incidence and prevalence // J Invest Dermatol. 2013 Feb;133(2):377-85.

2. Danielsen K, Olsen AO, Wilsgaard T, Furberg AS. Is the prevalence of psoriasis increasing? A 30-year follow-up of a population-based cohort //Br J Dermatol. 2013 Jun; 168(6):1303-10.

3. Campalani E, Barker J. The clinical genetics of psoriasis // Current genomics. 2005; 6:51-60.

4. Gelfand JM, Stern RS, Nijsten T, et al. The prevalence of psoriasis in African Americans: results from a population-based study // Journal of the American Academy of Dermatology. 2005;52: 23-6.

5. Prashant DDB. Epidemiology of psoriasis in Malaysia: a hospital-based study. Med J Malaysia. 2010; 65:112.

6. Meglio P., Villanova F., Nestle F. Psoriasis //Cold Spring Harb Perspect Med. 2014 Aug; 4(8): a0 15354.